

## 6 – Ma’ruza. Interfaol ta’lim metodlari

### Reja:

1. Individual ta’lim printsiplari.
2. Interfaol darsning afzalliklari.
3. Shaxsni o’zini – o’zi rivojlantirish.
4. Interfaol dars shakl – formalari.

**Kalit soʻzlar :** Standart, moderinizatsiyalangan dastur, individual yondashuv, printsiplar, mustaqil o’qish, passiv, interaktiv, muammoli, loyihali, rolli o’yin, kreativ, evristik, AKT ta’limi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar / Ma’ruzalar matni. Tuz.: A.X.Qosimov, F.A.Holikova. – T.: TATU, 2004.

2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.

3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

#### **Xorijiy adabiyotlar**

1. Unt Inge. Individualizatsiya i differentsiatsiya obucheniya.- M.: Pedagogika, 1990.

2. Yudin V.V. Pedagogicheskaya texnologiya. – Yaroslavl`, 1997.

#### **Qoʻshimcha adabiyotlar**

4. Interfaol metodlar: mohiyati va qoʻllanilishi / Met.qoʻl. D.Roʻzieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – T.: Nizomiy nomli TDPU, 2013.

#### **Internet saytlari.**

1. www. edu. uz

2. tdpu-INTRANET. Ped

### **1.Individual ta’lim printsiplari.**

Ma’lumki, mamlakatimizda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim jarayoniga tatbiq etishning so’nggi bosqichi: sifat va samaradorlikni ta’min etuvchi eng mas’uliyatli davri boshlandi.

Standartlar takomillashtirildi, dasturlar moderinizatsiya qilinib, variativ o’quv rejalar, darsliklar tender asosida tanlanib, ularning yangi avlodlari barcha umumta’lim maktablariga yetkazildi. Maktablarning moddiy bazasi kun sayin mustahkamlanib bormoqda. Yangi – yangi maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash, zamonaviy asbob – uskunalar, jixozlar, texnika vositalari, informatsion axborot vositalari, kompyuterlashtirish, axborot – resurs markazlari bilan ta’minlanmoqda.

O’qituvchilar va o’quvchilarni ijtimoiy himoya qilish, tabaqalashgan holda moddiy, ma’naviy rag’batlantirish mexanizmlari yaratilmoqda. Qisqa qilib aytganda, xalq ta’limi xodimlariga har tomonlama jahon talablariga mos jixozlangan maktab, akademik litsey, kasb – hunar kollejlari farzandlarimizga zamonaviy o’quv xonalar va laboratoriyalarda ta’lim berish uchun barcha imkoniyatlar yaratilib berilgan. Bu haqda chet ellik ekspertlar ham o’zlarining ijobiy fikrlarini bildirmoqdalar.

Ana shunday sharoitda yangilangan innovatsion pedagogika asosida dars o’qitishga barcha o’qituvchilar tayyormi? Ular mas’uliyatni xis qilgan holda jonbozlik ko’rsatishyaptimi? Maktablarda hamon eski qolipdagi zerikarli darslardan voz kechish uchun nima qilmoq, ishni qanday tashkil etmoq kerak?

Umumta’lim maktablarida interfaol usullarni qo’llash, ta’lim sifati va samaradorligini ko’tarish, takomillashtirilgan standart va moderinizatsiya qilingan dasturlarni o’zlashtirishni

kafolatlash, o'quvchini faollikka, erkin fikr yuritishga o'rgatish, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga erishtirish uchun nima qilmoq, qanday choralar ko'rmoq kerak?

Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun o'qituvchi faoliyatini innovatsion asosda qayta ko'rib chiqish, interfaol ta'limni yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'qituvchilarimiz bu vaziyatdan chiqishda ularni o'z faoliyatiga tanqidiy yondashib, psixologik qayta ko'rib chiqib, ularni yangi sharoitda bolalarga samimiy munosabatda bo'lish, ularni rivojlantirishda shaxsiy yondashuv, hamkorlik, hamijodkorlik, individuallashtirish asosida, ularni ta'lim - tarbiya jarayoniga motivatsiya hosil qilish orqali ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga barcha kuchlarini va e'tiborlarini qaratishni talab etadi.

Agar o'qituvchi o'zining faoliyatni kuzatib borsa, tahlil qilsa, o'ziga baho bera olsa, o'z faoliyatiga tuzatishlar, yangiliklar kirita olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli ham respublikamizda interfaol metodlarni o'quv jarayoniga qo'llash keng joriy etilmog'i kerak. O'quv jarayoni markazida o'quvchi shaxsi, uning extiyoji bo'lmog'i lozim. O'quv jarayoni uning hoxish, istagiga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lmog'i talab etiladi. Shaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchini o'quv – biluv faoliyatini tashkil etishning harakatlantiruvchi, qiziqish, extiyojini, hoxish, istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion, interfaol ta'lim o'qituvchi va o'quvchiga doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o'z shaxsini rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi.

Yuqorida aytganimizdek, o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, hoxish, istagiga, extiyojiga qaratilmog'i kerak. Ya'ni ta'limni individuallashtirishga qaratilmog'i talab etiladi. Endi ta'limni individuallashtirish deganda nimani tushunish kerak? degan savolga javob beraylik.

- Ta'lim jarayonini individuallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'quv – biluv jarayoniga shaxsiy xissa qo'shishi hisobga olinadi.

- Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi.

- O'quv – metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o'quvchi o'quv – biluv jarayoni markazida bo'ladi.

#### **Individual yondashuv nima?**

1. Guruhlarda ishlaganda, o'quv – tarbiyaviy ishlarni tashkil etganda, har bir o'quvchi bilan yakkama – yakka ishlaganda ularning shaxsiy xususiyatlari doimo o'qituvchi diqqat markazida turishi hisobga olinmog'i kerak.

2. O'quvchi bilan muloqat olib borganda ham uning o'ziga xosligi diqqat markazida turish kerak.

3. Ta'lim jarayonida ham uning qobiliyati, imkoniyatlari nazarda tutilishi kerak.

4. Pedagogik, psixologik jarayonlarni olib borish o'quvchining shaxsiy rivojlanish darajasini ko'zda tutishi kerak.

#### **Individuallashtirish ta'lim printsiplari.**

- Individuallashtirish – o'quv jarayonining bosh strategiyasidir.

- O'quv jarayonini individuallashtirish orqali shaxsni rivojlantirish ta'minlanadi.

- Har bir o'quv predmetini o'qitishni individuallashtirish orqali amalga oshirish kutilgan natijani kafolatlaydi.

- O'qitish shakllarini individuallashtirish bilan integratsiyalash sharoiti yaratiladi.

- Individuallashtirish ta'lim – o'quv jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlaydi.

- Individuallashtirish ta'limda bilim, ko'nikma, malaka olish o'quvchining qiziqishi asosida kechadi.

- Mustaqil ishlay olish o'quvchining umumo'quv ko'nikmasini rivojlantiradi, taraqqiy ettiradi.

Demak, ta'lim – tarbiya sifati va samaradorligi o'quvchining ta'lim mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutoala bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog'liq.

Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin:

- O'quvchi o'qitilibgina qolmay, mustaqil o'qish, o'rganish, ishlashga, o'zlashtirishga o'rgatiladi.

- O'quvchilarni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rgatiladi. Bizga yot fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o'z nuqtai nazarini himoya eta olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

- O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, axborot – resurs markazlaridan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi.

- O'quvchining darsliklar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, konspekt yozish, qo'shimcha adabiyotlar va manbalar, spravochniklardan foydalanib, mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rgatiladi.

- Sinfidagi barcha o'quvchilarni o'z qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishlari kafolatlanadi. O'quvchining o'zlashtirganligini, olgan bilimlarini kundalik hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi.

- O'qituvchi – o'quvchilar interfaol metodlar asosida ishlashni o'rganib, uni o'z o'quv – biluv faoliyatlariga olib kira olsalar, barcha o'quvchilar deyarli bir xil natijalarga erishadilar.

Interfaol metodda dars jarayoni tashkil etilganda:

1.O'quvchilarning o'zaro faolligi oshadi, hamkorlik, hamijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

2.O'quv reja, dastur, ta'lim mazmuni, darslik, standart, me'yor, qo'llanmalar bilan ishlash malakalari shakllanadi.

3.Ta'lim mazmunini, matnini mustaqil mutoala qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.

4.O'quvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi. Eng muhimi o'quv jarayonida didaktiv motivlar vujudga keladi. Ya'ni o'quvchining extiyoji, hoxish, istagi qondiriladi, dars qiziqarli kechayotganligi sababli, vaqt o'tayotganini bilmay qoladi. O'quv – biluv jarayonida o'quvchining shaxsiy manfaatdorligi oshadi. Bu holat o'quvchini o'quv maqsadlariga intilishi va erishishida yuqori bosqichga ko'taradi.

#### **Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari.**

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.

- O'z vaqtida o'quvchi – o'qituvchi – o'quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi.

- O'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh).

- O'quv jarayoni o'qish extiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi.

- O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi.

- O'quv jarayonida o'quvchining o'zi o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.

- O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi.

- Har bir o'quvchining o'zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

- Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Xulosa shuki, bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o'z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirish o'zi – o'ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Ya'ni o'quvchining:

- O'zi mustaqil mutoala qilishi, o'qishi asosida bilim olishi;
- O'zini – o'zi anglab yetishga, anglab tarbiya topishga;
- O'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
- O'quv mehnatiga mas'uliyat xissi bilan qarashga;
- O'z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g'animat bilishga;
- O'quv mehnatiga o'zida hoxish, istak uyg'ota olishga;
- Har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga;
- Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni

asosiy va bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur.

Shuning uchun ham hozirgi kunda o'quvchining **o'zini – o'zi rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fani oldida yechimini kutayotgan dolzarb muammolardandir.**

Keyingi vaqtlarda o'qituvchilar orasida shaxsga qaratilgan ta'lim nima? Interfaol metodda o'qitish nima uchun zarur? Uning qanday turlari mavjud? Tarkibiy tuzilishi qanday? Uni ta'lim jarayoniga qanday olib kiriladi? Uning avvalgi usullardan farqi nimada? degan savollar uchraydi.

Bu savollarga aniq javob topish uchun shu kunlarda umumta'lim maktablarimizda olib borilayotgan an'anaviy darslarni yana bir marotaba tahlil etish joizdir.


An'anaviy usul 17 asrda chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiy tomonidan taklif etilgan.

U o'qitishning yagona klassik tizimini ishlab chiqib, uni **sinf – dars sistemasi** deb yuritadi. Keyinchalik bu sistema pedagogikada keng tarqalgan.

An'anaviy maktab sinf – dars sistemasi quyidagicha o'ziga xos an'analarga ega:

- Taxminan bir xil yoki yaqin yoshli, tayyorgarlik darajasi yaqin bolalar sinfni tashkil etadi.
- Sinf yagona reja, dastur, darslik, dars jadvali asosida ishlaydi.
- Mashg'ulot turi asosan yagona dars hisoblanadi.
- Dars ma'lum bir o'quv predmeti, mavzuga oid bir xil material ustida ishlaydi.
- O'quvchilar faoliyatini o'qituvchi boshqaradi, har bir o'quvchining bilim darajasini baholaydi, yil oxirida o'quvchini sinfdan – sinfga ko'chirishni ham u hal qiladi, ya'ni o'quvchilarning taqdirining hal etilishi o'qituvchi qo'lidadir.
- Darsliklar bilan ishlash uy ishini bajarishda uyda qo'llaniladi.

### **An'anaviy dars tuzilmasi**




### **An'anaviy darsning kontseptual holati:**

- Ilmiylik;
- O'quvchi tabiatiga mosligi;
- Ketma – ketlik, tizimliliigi;
- Tushunarliliigi;
- Mustahkamligi;
- Anglash, faollik;
- Ko'rgazmaliylik;
- Nazariya va amaliyot bilan bog'liqligi, amalda qo'llay bilish.

### **An'anaviy darslarning kamchiligi:**

- Darslarning bir xilligi, bir qolipdaligi;
- Boshlang'ich ma'lumot berilib, uni o'zlashtirish jarayoni uyda, reja, vazifa, mashq orqali amalga oshishi;
- O'quvchilar passiv eshituvchi va mustaqillikning yo'qligi;
- O'quvchilar bir – birlari bilan nutqiy fikr almasha olmasliklari;
- Qayta aloqalar yo'lga qo'yilmaganligi;
- Har bir faoliyat o'rtacha o'quvchiga yondashuv asosida kechishi;
- Ta'lim mazmunini yetkazish asosan o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi.

Endi mamlakatimiz maktablarida foydalanilayotgan ta'lim modeli bilan tanishamiz:



**Passiv usul.** O'quvchi o'qituvchining so'zidan, aytib berishi, hikoya qilib berishi, ma'ruzasi, og'zaki tushuntirishi, bayon etishidan o'quv materiallarni eshitadi, ko'radi, o'zlashtirishga harakat qiladi. O'quv materiali uy vazifalarni qo'llanma, masala, mashqlar to'plami, darsliklardan o'qib o'rganiladi. Bu jarayonda o'quvchi bilan o'qituvchi orasida muloqat, aloqalar munosabatlari tizimli o'rnatilmagan. O'quvchi o'z darajasida – qobiliyati, qiziqishi, istak, hoxishi asosida o'zlashtiradi. Unda ta'lim mazmunini standartlar darajasida o'zlashtirish kafolatlanmaydi.

**Faol usul.** An'anaviy usuldan keng foydalaniladi. O'qituvchi ta'lim mazmunini bayon etishda bor kuchini, mahoratini ishga solib, dalil, ko'rgazmali qurollar, didaktik tarqatma materiallar yordamida ta'sirchan qilib tushuntirishga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan Nazoratfikr almashadi. Muloqat o'rnatadi. Ijodiy ishlar berish orqali mashqlar yechadi. Uy ishlarini ham mustaqil ishlash, takrorlash orqali amalga oshiradi. Ta'lim mazmunini bir muncha yuqori o'zlashtirishga erishadi.

**Interfaol usul.** O'quvchilarga dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishlari uchun ijodiy muhit, o'zaro axborot berish va olish uchun sharoit yaratadi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muxokama etadilar va yechadilar, vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida o'z bilimlarini bir – birlariga namoyish etadilar. Bir – birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Chizmalar, yozma konspektlar yuritadilar. Har bir ishtirokchi ta'lim mazmunini mualliflaridek xis etadilar. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar. Yana qo'shimcha ma'lumotlar to'plash uchun qo'shimcha adabiyotlarga, internet orqali ma'lumotlar to'plashga kirishadilar.

Endi interfaol metodlarga batafsilroq to'xtalamiz.


**Interfaol metodlar** – shunday metodlarki, u o'quvchilarning o'zaro muloqat va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir.

“Interaktiv” soʻzi ingliz tilidan olingan “Interakt”, yaʼni “Inter” – oʻzaro, “akt” – harakat, taʼsir, faollik maʼnolarini beradi.

Interfaol usullardagi darslar oʻquvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni oʻzaro faollikda hal etishga, oʻz fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlik, hamjixatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Interfaol metodlarda ish yuritish, anʼanaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki taʼlim mazmunini oʻzaro faollikda hal eta olish demakdir.

Quyida interfaol taʼlim tizimini sxematik tarzda keltiramiz:



Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni taʼlim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining oʻquv jarayoniga qoʻllanilishi tushuniladi. Interfaollik bu oʻzaro ikki kishi faolligi, yaʼni oʻquv – biluv jarayoni oʻzaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki oʻquvchi – oʻqituvchining oʻzaro muloqati asosida kechadi.

Interfaollik – oʻzaro faollik, harakat, taʼsirchanlik, u oʻquvchi va oʻqituvchi muloqatlarida sodir boʻladi.

Interfaol usulning bosh maqsadi oʻquv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali oʻquvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U oʻzining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi va oʻquv sifati va samaradorligini oshiradi.

Interfaollik asosida oʻtgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham oʻquvchi chetda qolmaydi, yaʼni ular koʻrgan, bilgan, oʻylagan fikrlarini ochiq – oydin bildirish imkoniyatiga ega boʻladilar. Oʻquvchilarning har bir bildirgan fikrlari, u toʻgʻri yoki notoʻgʻri boʻlishidan qatʼiy nazar, tanqid qilinmaydi.

Oʻquvchilar hamkorlik, hamijodkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish va oʻzlashtirishda oʻzlarining shaxsiy xissalarini qoʻshish imkoniyatiga ega boʻladilar. Oʻzaro bilimlar, gʻoyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir boʻladi.

Bunday holatlar oʻzaro samimiyligni taʼminlaydi, yangi bilimlarni olish, oʻzlashtirishga havas ortadi.

Dars jarayonida bir – birlarini qoʻllab – quvvatlash, oʻzaro samimiy, doʻstona munosabatlar vujudga keladi. Bu muhitni yaratilishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Dialog asosida kechgan jarayonlarda oʻquvchi tanqidiy fikrlashga, murakkab masalalarni ham tahlil asosida yechimini topishga, shunga yarasha axborotni izlash, ayrim alternativ fikrlarni oʻzaro muzokaralarda erkin bayon qilishga oʻrganadi va shunday koʻnikmalar shakllanib boradi.

Interfaol darslarni tashkil etishda oʻquv jarayonida yakka tartibda, juft boʻlib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli oʻyinlar, hujjat bilan ishlash, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashlardan foydalanish mumkin.

Interfaol usullar nimalarni oʻz ichiga oladi? Hozirgi kunda mamlakatimiz metodistlari, trenerlari, amaliyotchi oʻqituvchilari turli shakl – formalar taklif etmoqda va amaliyotda qoʻllamoqda. Ulardan:

- Juftlikda ishlash;
- Korusel;
- Kichik guruhlarda ishlash;

- Akvarium;
- Tugallanmagan gaplar;
- Aqliy hujum;
- Broun harakati;
- Daraxt yechimi;
- O'z nomimdan so'zlayman;
- Rolli o'yinlar;
- Press metod;
- O'z pozitsiyasini egallash;
- Munozara;
- Debatlar;
- Katta davra va boshqalar.

Yuqoridagi turli shakl – formalardan foydalanishda, o'quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, ularni ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan hollarda qo'llanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkin.

Umuman yuqorida keltirilgan biror formada ish yuritish, darsni tashkil etish uchun har bir mashg'ulotning konsepsiyasining yaratilishi, shu asosda uning ketma – ketligi, reklamenti, ish tartibi, maqsad, vazifalar, kutilayotgan natijalar oldindan belgilab olinishi va bundan o'quvchilar boxabar etilishi kerak.

Interfaol metodda o'qitish muhiti tashkil etiladi, qulay ijodiy sharoit, namunali tashkil etilgan o'qitish muhiti yaratiladi. O'qish va tadqiqotlarga ko'maklashiladi; -urli tadqiqotlar olib borish uchun materiallar taxt qilib qo'yiladi;

- jodkorlik qobiliyatlar rag'batlantirib boriladi;
- itimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi;
- fikrlar va axborotlar almashinuviga imkon yaratadi;
- nutqiy rivojlanishni rag'batlantiradi;
- ma'lumotlarni mustaqil olish ko'nikmalari shakllanadi;
- uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalari rivojlantiriladi;
- turli usullar bilan ma'lumotlar olish uchun resurslarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumotnomalar, lug'utlar, entsiklopediyalar, geografik xaritalar, kompyuter, tajriba o'tkazish uchun turli asboblarni, materiallar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quv materialining mazmuni, nimaga o'rgatilishi, tahlili, motivatsiyasi, o'qituvchi, o'quvchilarni ketma – ketlikdagi harakatlari ko'zda tutiladi.

### **Nazorat savollar**

1. Interfaol ta'limning zaruriyati nimada?
2. Individuallashtirilgan ta'lim deganda nimani tushunasiz?
3. Individual ta'limning asosiy printsiplari nimalardan iborat?
4. An'anaviy sinf – dars tizimi deganda nimani tushunasiz? Yan Amos Komenskiy xizmatlari.
5. Ta'lim modelini tushuntirib bering.
6. Passiv ta'limni ta'riflab bering.
7. Faol ta'limni ta'riflab bering.
8. Interfaol ta'limni ta'riflab bering.
9. Interfaol darslarning shakl – formalari sanab bering.
10. Interfaol darslar qanday tayyorlanadi? Uni o'tkazish shart – sharoitlarini tushuntiring.